

Bemorni Tekshirish

3

BOB

Bemorning ehtiyoju xojatlarini bilib olish uchun dastlab unga muhim savollar berishingiz shart va so'ng ehtiyotkorlik bilan tekshirishingiz kerak. Siz bemorning ahvoli og'ir yoki yengil ekanligini aniqlashga yordam beruvchi belgilarni qidirishingiz kerak.

Bemorni yorug'lik ko'p bo'lgan joyda, iloji bo'lsa quyoshda tekshiring, lekin hech qachon qorong'i xonada tekshirmang.

Har bir bemor uchun maxsus so'raladigan savollar va usullar mavjuddir. Kasalning o'zi sezayotgan belgilar va tekshiruv vaqtida siz topgan belgilar ham shular qatoriga kiradi. Gapira olmaydigan odamlar va chaqaloqlar xususida bu belgilar juda muhim bo'ladi

Bu kitobda „belgi“ so'zi kasallikning alomati, ya'ni simptomi ma'nosida ishlatilgandir.

Bemorni tekshirganingizdan so'ng barcha ma'lumotlarni yozib qo'ying va kerakli vaqtda tibbiyot xodimiga berish uchun ularni saqlang (120-bet).

SAVOLLAR BERISH YOKI SO'RAB-SURISHTIRISH

Savol berishni bemorning kasalligining boshidan boshlang. Quyidagilarni so'rab bilib oling:

Hozir sizni nima ko'proq bezovta qilyapti?

O'zingizni yaxshiroq yoki yomonroq sezishingizga nima sabab bo'lyapti?

Kasallik qanday va qachon boshlangan?

Bunday kasallik sizda, oila a'zolaringiz yoki qo'ni-qo'shnilaringizda avval bo'lganmi?



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Kasallik haqida to'la ma'lumot olish uchun boshqa savollar bilan suhbatni davom ettirishingiz mumkin.

Masalan: agar kasalning biror joyi og'riyotgan bo'lsa, undan so'rang:

Qayeringiz og'riyapti? (Aniq og'riyotgan joyini barmog'i bilan ko'rsatsin.)
Og'riq doimiymi yoki vaqti-vaqti bilan bo'lib turadiganmi?

Qanday og'riq bor? (o'tkir? sust? qizdiruvchi?)

Og'riq bilan uxlay olasizmi?

Agar kasal gapirmaydigan bola bo'lsa, og'riq belgilarini izlang. Uning hatti-harakatlari va yig'isiga e'tibor bering. (Masalan: qulog'i og'riyotgan bola, ba'zan og'riyotgan qulog'ini biror narsaga surtadi yoki tortadi.)

SOG'LIQNING UMUMIY AHVOLI

Bemorni ushlab ko'rishdan avval uni sinchiklab kuzating. Bemorning ko'rinishi yoki qanchalik quvvatsiz ekanligi, harakatlari, nafasi va qanchalik hushi joyida ekanligini kuzating. Suvsizlanish (281-bet) va shok (170-bet) belgilari bor-yo'qligiga e'tibor bering.

Bemor yaxshi yoki yomon ovqatlanayotganligiga e'tibor bering. U vaznini yo'qotganmi? Agar kasal anchadan beri oz-ozdan vazn yo'qotib kelgan bo'lsa, unda *surunkali kasallik* (uzoq davom etadigan kasallik) bo'lishi mumkin.

Teri va ko'z rangiga e'tibor bering. Ba'zan kasallik ta'sirida ular o'zgaradi. (To'q rangli terida o'zgarishlar bilinmasligi mumkin. Shuning uchun terining rangi ochroq bo'lgan joylarni: kaft yoki oyoq to'pig'i, qo'l tirnoqlari yoki lablar va qovoqlar ichini ko'ring.)

• Lab va qovoqlar ostining oqarib qolgani kamqonlik (242-bet) belgilaridir. Sil (342-bet) yoki ovqatga yolchimaslik (215-bet) ta'sirida terining oqarishi kuzatilishi mumkin.

• Teri rangining qoraygani, odamning uniqib ketgani esa ochlik(215-bet) ta'siri bo'lishi mumkin.

- Teri rangining ko'karishi, ayniqsa, lab va tirnoqlar ostining ko'karishi yoki rangining to'qlashib turgani, nafas yoki yurak muammolari (580-bet)dan dalolatdir. Hushsiz bola rangining zaxil (ko'kish-kul rang) bo'lib ketgani miyadagi bezgak alomati (352-bet) bo'lishi ham mumkin.
- Terisining muzdek va nam bo'lib turgani uning shok holatida ekanligidir (170-bet).
- Bunda terisi va ko'z oqlarining sarg'ayib turgani gepatit (sariq kasalligi, 321-bet), jigar sirrozi (585-bet), amyoba natijasida kelib chiqqan jigar absessi (269-bet) yoki o't-tosh kasalligidan bo'lishi mumkin. Bu xodisa yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham uchraydi.

Shuningdek, yorug'lik bir tomondan tushayotganda ham teri rangining o'zgarishlariga e'tibor bering. Bu isitmalayotgan bola terisidagi qizamiqning dastlabki alomatlaridan bo'lishi mumkin (558-bet).

ISITMA (TANA HARORATI)

Isitmasi bo'lmagan bemorning haroratini o'lchash oqilona fikrdir. Agar kasal juda og'ir bo'lsa, uning haroratini 4 mahal o'lchang va yozib qo'ying.



Agar termometr bo'lmasa, bir qo'lingiz orqasini kasal odam peshonasiga, ikkinchisini esa o'zingiz yoki boshqa sog'lom odam peshonasiga qo'ying.

Agar bemorning isitmasi bo'lsa, siz farqni darhol sezasiz.

Isitmaning qanday va qachon chiqishi, qancha vaqt davom etishi va qanday yo'q bo'lib ketishini bilib olish muhimdir. Bu esa kasallikni topishga yordam beradi. Isitma chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar:


- Oddiy shamollash va boshqa virusli infeksiyalar (302-bet). Harorat yuqori emas.
- Terlama sababli harorat 5 kun davomida ortib boradi.
- Sil, ko'pincha tushlikdan keyingi yengil isitmalarga olib keladi. Kechasi kasal terlaydi va isitma pasayadi.

Termometrni Qanday Ishlatish Kerak

Har bir oilada termometr bo'lishi kerak. Bemor haroratini kuniga 4 mahal o'lchang va uni yozib qo'ying.

Termometrni ko'rish

Kumush rang chiziqni ko'rguningizga qadar termometrni aylantiring



Kumush rang chiziq tugagan joy harorat darajasini bildiradi.

Ushbu termometr harorat 40 daraja ekanligini ko'rsatyapti.

Haroratni o'lchash:


1. Termometrni sovunli suv yoki spirt bilan artiring. Termometrning ichidagi harorati 36°dan past tushguncha qattiq silkiting.



2. Termometrni qo'ying. og'izga qo'yish noqutil tagiga (og'iz berk holda)

og'izga qo'yish noqulay bo'lsa, uni qo'ltiqqa qo'ying

asta, yosh bolaning orqa peshoviga (uni avval ho'llang yoki yog'lang) qo'ying



3. Termometrni qo'ygan joyingizda 3 yoki 4 daqiqaga qoldiring.
4. Termometrni ko'ring. (Qo'ltiq harorati og'iz haroratiga nisbatan biroz pastroq bo'ladi, orqa peshov harorati esa bir oz yuqoriroq bo'ladi).
5. Termometrni yaxshilab sovunlab yuving.

Eslatma: Chaqaloqlar haroratining odatdagidan yuqori **yoki past** (36° dan past) bo'lishida harorat jiddiy infeksiyadan darak berishi mumkin (496-bet).

- ◆ Haroratlar to'g'risida ma'lumot olish uchun 96-98- betlarga qarang.
- ◆ Isitmada nima qilish kerakligi haqida bilish uchun 167-betga qarang.

NAFAS

Bemorning nafas olishiga e'tibor bering—nafasining chuqurligi (chuqur yoki sayozligi), tezligi (qancha tez nafas olishi) va og'ir-yengilligini tekshirib ko'ring. U nafas olganda ko'krak qafasining ikkala qismi ham teng harakatlanayotganiga e'tibor bering.

Agar soat yoki sekundomeringiz bo'lsa, bemor minutiga necha marta nafas olishini hisoblang (kasal tinch bo'lgan paytda). Kattalar va o'smir bolalar bir minutda 12 dan 20 martagacha nafas oladilar. Bolalar uchun 30 marta, chaqaloqlar uchun esa 40 martagacha nafas olish oddiy holdir. Yuqori haroratli yoki nafas yo'llarida jiddiy kasalliklari (zotiljam (pnevmoniya) kabi) bor odamlar odatdagidan ko'ra ko'proq nafas oladilar. Kattalardagi nafas olish **sayoz** bo'lib minutiga 30 dan ortiq yoki bolalardagi 60 dan ortib ketgani odatda, zotiljam (pnevmoniya)dan dalolat beradi.

Nafas olganda kelib chiqadigan tovushlarga e'tiboringizni qarating.
Masalan:

- Xirillab yoki hushtaksimon qiynalib nafas olish - astma bo'lishi mumkin (308-bet).
- Hushsiz odamning nafas olishidagi g'irillagan yoki xurrakli shovqinlar -kasalning tili, shilimshiq (yiring) yoki boshqa narsalar uning tomog'ini to'sib, nafas olishini qiyinlashtirayotganini bildiradi.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Kasal nafas olganida qovurg`alar orasidagi yoki o`mrov tepasidagi chuqurchasidagi terining ichkariga kirishini kuzating. Bu havo o`tishi qiyinlashganidandir. Bu esa tomoqqa biror narsa tiqilgani (173-bet), o`pka shamollashi (pnevmoniya) (315-bet), astma (308-bet) yoki bronxit (o`pka-ga havoning ozroq kirishi, 313-bet)larda bo`lishi mumkin.

Agar bemor yo`talayotgan bo`lsa, yo`tal uning uxlashiga xalaqit berayotganini aniqlang. Uning balg`ami bo`lsa, uning rangi, miqdori va tarkibida qon bor yoki yo`qligiga e`tibor bering.

PULS (TOMIR URISHI)

Qon tomirining urishini kuzatish uchun barmoqlaringizni kasal bilagiga ko`rsatilgandek qilib qo`ying. (Qon tomiri urishini kuzatish uchun bosh barmog`ingizni ishlatmang)

Agar siz bilakdan topa olmasangiz, bo`yinning ikkala chekasidagi qon TOMIRNI TOPING yoki qulog`ingizni kasal ko`kragiga qo`ying va yurak urishini kuzating (yoki fonendoskop ishlating).

Qon tomiri urishining kuchi, tezligi va o`zgarmasligiga e`tibor bering. Agar soat yoki sekundomeringiz bo`lsa, minutdagi puls sonini aniqlang.



DAM OLAYOTGAN ODAMLAR UCHUN PULSNING NORMAL SONI

kattalarda.....minutiga 60 dan 80 gacha

bolalarda.....80 dan 100 gacha

chaqaloqlarda..... 100 dan 140 gacha

Odamlar mashq qilganda, xavotirlanganda, qo`rqib ketganda yoki isitmasi chiqqanda puls soni ortadi. Isitma vaqtidagi puls soni har bir gradusda ($^{\circ}\text{C}$) 10-20 tadan ortib boradi.

Odam qattiq kasal bo`lganida uning pulsini tez-tez sanab, harorat va nafas soni bilan bir qatorda yozib qo`ying.

Puls tezligidagi o'zgarishlarni sezish muhimdir. Masalan:

- Kuchsiz, tez-tez urayotgan tomir shok holatini bildirishi mumkin (170-bet).
- Juda tez, juda sekin, kuchsiz yoki notekis urayotgan tomir- yurak muammolaridan bo'lishi mumkin (580-bet).
- Yuqori harorati bor odam qon tomirining juda sekin urishi- bezgakdan bo'lishi mumkin (352-bet).

KO`ZLAR

Ko`zlar oqi rangiga e'tibor bering. U normal, qizil (410-bet) yoki sariqmi? Shuningdek, bemor odamning ko`rish qobiliyatidagi har qanday o'zgarishni kuzatib yuring.

Kasal ko`zlari bilan tepaga va pastga, bir tomondan ikkinchi tomonga asta-sekin qarasin. Ko`zning titrog'i yoki notekis harakati miya shikastining belgisidir.

Qorachiq (ko`z o`rtasidagi qora dog`) kattaligiga ham e'tibor bering. Agar ular juda katta bo`lsa, bu shok holatidan darak beradi (170-bet). Agar ular juda katta yoki juda kichik bo`lsa, bu zaharlanish yoki ma`lum dorilar ta`siri bo'lishi mumkin.

Ikkala ko`zga ham qarang va ular orasidagi har qanday farqni bilishga harakat qiling, ayniqsa, qorachiqlar kattaligidagi farqqa e'tibor bering:



Ko`z qorachiqlari orasidagi katta farq tibbiy tomondan jiddiy holatni bildiradi:

- Agar ko`z qorachig'i juda katta bo`lib, kasalni qayt qildiradigan darajada qattiq og`risa, bu GLAUKOMA (415-bet) bo'lishi mumkin.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

• Agar ko`z qorachig`i kichikroq bo`lib, qattiq og`risa, IRIT (414-bet) juda jiddiy kasallik bo`lishi mumkin.

• Hushsiz yoki boshi jarohatlangan odamning ikki ko`zi qorachig`lari orasidagi farq, miya shikastining belgisidir. Shuningdek, MIYAGA QON QUYILGAN (insult) bo`lishi ham mumkin (583-bet).

Hushsiz yoki boshi jarohatlangan odamning qorachiqlariga e`tibor bering.

QULOQ, TOMOQ VA BURUN

Quloqlar: Doim quloqdagi og`riq va infeksiya belgilarini tekshiring, ayniqsa, agar bola isitmalayotgan yoki shamollagan bo`lsa. Ko`p yig`lab qulog`ini tortayotgan bolada ko`pincha quloq infeksiyasi bo`ladi (554-bet).



Quloqni asta tortib ko`ring. Agar bu og`riqning zo`rayishiga olib kelsa, infeksiya quloq nayida bo`lishi mumkin (eshituv kanalida). Shuningdek quloq ichidagi qizarishlarga va yiringlarga e`tibor bering. Bunda kichik fonarcha yordam beradi. Lekin cho`p, sim yoki boshqa qattiq narsalarni hech qachon quloq ichiga tiqmang.

Kasal yaxshi eshitayotganini yoki uning bir qulog`i boshqasiga nisbatan og`irroq ekanligini tekshiring. Eshitish qobiliyatini aniqlash uchun bosh va boshqa barmoqlaringizni kasal quloqlari oldida ishqalang. Karlik va quloqlardagi zing`illash xususida 584-betga qarang.

Tomoq va Og`iz: Tomoq va og`izni kichik fonarcha yoki quyosh nuriga tutib tekshiring. Buning uchun qoshiqning ushlaydigan joyi bilan tilni pastga bosing yoki kasal „aaaaa...“ desin. Tomoq qizarganiga yoki tomoq bezlari shishgan va ularda yiringli dog`lar (555-bet) bor yoki yo`qligiga e`tibor bering. Shuningdek, og`izdagi yaralar, yallig`langan milklar, og`riqli til, chirigan yoki abssessli tishlar va boshqa kasalliklarga ahamiyat bering (17-bob).

Burun: Burun oqyaptimi yoki bitganmi? (Bola burni orqali nafas olayotganiga qarang.) Ichini yoriting va shilimshiq, yiring, qon, qizarish, shish yoki sassiq hidlar bor-yo`qligiga e`tibor bering. Sinusit (gaymorit) yoki allergik ta`sir (307-bet) belgilarini izlang.

TERI

Bemorning kasalligi qanchalik oddiy ko`rinmasin, uning butun tanasini tekshirish muhimdir. Chaqaloq va bolalar ehtiyotkorlik bilan echintirilishi kerak. Odatdan tashqari har qanday holatlarda quyidagilarga e`tibor bering:

- yara chiqqan, jarohatlangan yoki biror narsa kirgan joylar
- toshma yoki tugunchalar

- xol, dog` yoki boshqa g`ayrioddiy belgilar

- yallig`lanish (infeksiya belgilari, qizarish, issiq, og`riq va shish mavjud bo`lgan joylar)

- shishgan joy

- limfatik tugunlarning shishi, bo`yin, qo`ltiq yoki chovdagi kichik bezlar (186-bet).

Bolalar dumbalarining orasini, jinsiy organlari yonlarini, qo`l va oyoq barmoqlari orasi, quloqlari orqasi va boshlarini (bit, chandiq, temiratki, toshma va yaralarni aniqlash uchun) har safar tekshirib turing.

Teri muammolarini aniqlash uchun 374-betga qarang.

odatdan tashqari bo`rtmalar yoki jismlar

odatdan tashqari, sochning to`kilishi, soch rangining yo`qolishi yoki tovlanishining yo`qolishi (390-bet)

qoshlarning tushib ketgani (moxov bo`lishi mumkin) (359-bet)



QORIN

Agar kasalning qorni og`riyotgan bo`lsa, og`riq qayerda ekanligini toping.



Og`riq doimiy yoki xuruj kabi kelib ketuvchi ekanligini aniqlang.

Qorinni tekshirishingizdan oldin, u yerda odatdan tashqari shish yoki bo`rtmalar bor-yo`qligiga e`tibor bering.

Og`riqning joyi ko`pincha sababning topilishiga olib keladi (keyingi betga qarang).

Dastlab, kasal og`riyotgan joyni barmog`i bilan ko`rsatsin.

So`ng qaysi joyda og`riq qattiqroq ekanligini bilish uchun qorinning turli joylarini ko`rsatilgan joyning qarama-qarshi tomonidan boshlab paypaslab ko`ring.




Qorinning yumshoqligiga, qattiqligiga yoki bemor qorin muskullarini yumshata olishiga e`tibor bering. Qattiq qorin og`rig`i, "o`tkir qorin"ni bildirishi mumkin, balki appenditsit yoki peritonit(196-bet) bo`lishi mumkin.

Agar siz peritonit yoki appenditsitdan shubha qilayotgan bo`lsangiz, 196-betda aytilgan Shyotkin-Blyumberg simptomini tekshiring.

Qorin sohasidagi har qanday shish, qattiqlashgan joylarni izlab toping.

Agar kasalning qorni to`xtovsiz og`rib, ko`ngli aynisa va bir necha kundan beri ichi kelmagan bo`lsa, qorniga quyidagicha qilib qulog`ingiz (yoki fonendoskop)ni qo`ying:




Ichaklardagi g`urillashlarga quloq soling. Agar 2 min.dan so`ng ham hech narsa eshitmasangiz, bu xavfli belgidir. (Ichakning xatarli dardlari, 194-bet.)

Jim turgan qorin, jim turgan itga o`xshaydi. Ehtiyot bo`ling!

Rasmlarda ko`rsatilgan joylardagi og`riqlar tayinli kasalliklarni bildiradi:

Oshqozon yarasi
(321-bet)


kindik tepasidagi og`riq



Appenditsit
(196-bet)


dastlab og`riq, mana bu yerda boshlanib,

so`ng mana bu joyga ko`chadi.




O't pufagi

(586-bet)
ko'pincha
orqaga beruv-
chi og'riqlar.




Jigar (585, 321
betlar)
mana bu joydagi
og'riq, u ba'zan
ko'krakka berishi
mumkin.




**Siydik siste-
masi**

(433-bet)
belning o'rtasi
yoki pastrog'i-
da. Bu og'riq
ko'pincha
bel aylanasi
bo'ylab qorin-
ning pastki
qismigacha
yetib keladi

siydik
naylari
quvuq



**Jinsiy
a'zolar yal-
lig'lanishi,
tuxumdon-
lar o'smasi
yoki bacha-
dondan
tashqari
homiladorlik
va boshqa-
lar** (449-bet)
bir yoki ikkala
yon boshda
og'riq turib,
ba'zan orqaga
ham o'tadi



Eslatma: Bel og'rig'ining turli sabablari xususida 325-betga qarang.

MUSKUL VA NERVLAR

Agar bemor uvushish, quvvatsizlik yoki biror a`zosining ishlashi sustlashganidan shikoyat qilsa yoki siz uni tekshirmoqchi bo'lsangiz, uning harakatlari va yurish-turishlarini kuzating. U tursin, o'tirsin yoki uzala tushib to`g'ri yotsin, siz esa tanasining ikkala tarafini ehtiyotkorlik bilan taqqoslang.

Yuz: bemor kulsin, qovog`ini solsin, ko`zlarini ochsin va qattiq yumsin. Yuzning biror tarafidagi harakatlarning bir tomonga tortayotgani yoki kuchsizligiga e`tiboringizni qarating.



Agar muammo birdan boshlansa, bosh jarohati (191-bet) miyaga qon quyilishi (insult) (583-bet) yoki yuzning qisman falajlanishi (583-bet) bo`lishi mumkin.

Agar bular asta boshlangan bo`lsa, bu miyadagi o`smadan darak berishi mumkin. Tibbiy maslahat oling.

Shuningdek, kasalning ko`z harakatlari, qorachig`larining katta-kichikligi (407-bet) va qanchalik yaxshi ko`rishini tekshiring.

Qo'l va oyoqlar: Muskullar kuchini tekshiring. Qo'l yoki oyoqlarning yo`g'onligini o`lchang yoki taxminan aniqlang.

Qo'llarning kuchi orasidagi farqni sezish uchun barmoqlaringizni qistirib ko`ring




oyoqlari bilan qo`lingizni itarsin va tortsin.




Qo'l va oyoqlar semizligi orasidagi farqni bilish uchun har qanday ip yoki o'lchov tasmasi ham ishlatilishi mumkin.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Shuningdek kasal qo'llarini to'g'ri ushlab kaftlarini pastga va yuqoriga qaratsin.



Yotgan holda oldin birinchi, so'ng ikkinchi oyog'ini ko'tarsin.



Bemorning yurish-turishlarini kuzating. Muskullar yoki butun tana zaifligida ovqatga yolchimaslik (226-bet) yoki silga o'xshash surunkali kasallikni taxmin qilish mumkin.

Bolalarda tananing bir tomoni zaif, kam harakat bo'lsa, dastlabki falaj haqida o'ylang; kattalardagi bunday xolat, bel umurtqasi kasalligi, bosh jarohati yoki miyaga qon quyilishi (insultlar)ga aloqador bo'lishi mumkin.

Muskullarning qattiqlashishi yoki tarangligini tekshiring.

• Agar jag` qotib qolsa, ochilmasa, qoqshol (347-bet), tomoq (555-bet) yoki tishdagi (428-bet) og'ir infeksiyadan shubha qilish mumkin. Agar bu muammo esnash yoki jag`ga qattiq urilgandan so'ng paydo bo'lsa, bemorning jag`i chiqqan bo'lishi mumkin.



• Agar kasal bolaning bo'yni qotib qolgan va beli bir oz orqaga bukilgan bo'lsa, meningitdan shubha qilishingiz mumkin.



meningit

Agar boshni oldinga bukishning iloji bo'lmasa, unda meningit bo'lish ehtimoli kuchli (351-bet).

• Agar bolaning muskullari **doim** qotgandek qattiq bo'lib, poyma-poy yoki titrab harakat qilsa, unda bolalar serebral (miya) falaji (paralichi) (572-bet) gumon qilish mumkin.

• Birdan hushdan ketib talvasaga tushish tutqanoqqa xosdir (331-bet). Bunday hodisa tez-tez takrorlanib turadigan bo'lib, tutqanoq kasalligidan (epilepsiya)dan shubha qiling. Agar bu belgilar bola og'riyotganda bo'lsa, ular yuqori harorat(101-bet), suvsizlanish (281-bet), qoqshol (347-bet) yoki meningit (351-bet)dan kelib chiqishi mumkin.



qoqshol

Qoqshol taxmin qilingan hollarda bemor reflekslarini tekshirish xususida 348-betga qarang.

Qo'l, oyoq va tananing boshqa qismlaridagi sezgining yo'qolishini tekshirish uchun:

Bemor ko'zlarini biror narsa bilan berkitsin. Turli joylarga asta qo'l tekkizing yoki igna sanchib ko'ring. Bemor buni sezganida „ha” desin.

• Dog' yo toshmalar yoki ular yonida sezgining yo'qolishi moxov belgisi bo'lishi mumkin (359-bet).

• Ikkala qo'l yoki oyoqlardagi sezgining yo'qolishi qand kasalligi (248-bet) yoki moxovdan bo'lishi mumkin.

• Tananing bir qismidagi sezgining yo'qolishi esa, umurtqa pog'onasidagi muammo (325-bet) yoki jarohatga aloqador bo'lishi mumkin.

